

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH XAMDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH**

*Yuldasheva Nilufar Mamirjonovna*

*Andijon shahar 32- umumiy o'rta ta'lim maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish xamda matematika o'qitishda interfaol metodlaridan foydalanish masalasi taxlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, didaktik vazifa, xotira, ta'lim sifati, bilim, axborot vositalari, kompyuter.

### **KIRISH**

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida matematikani o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri o'quvchilarda "... izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql-zakovot rivojiga, tabiat va jamiyatdagi muammolarni hal etishning maqbul yo'llarini to'a olishlariga ko'maklashish" ekanligi qayd etilgan. Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilim olishi birinchi o'rinda turishini hamma yaxshi biladi. O'quvchi o'qituvchi bergan har bir bilimni yaxshi o'zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo'llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda matematik jummalarni kiritish va mustahkamlash uslubi katta ahamiyatga egadir, chunki, matematika darslarida o'rganilayotgan o'quv materialining

hajmi, mazmuni, o'quvchilarning rivojlanish darajasi va boshqa holatlarga bog'liq holda, matematik jummlarni kiritishning quyidagi uchta usulidan biri qo'llaniladi.

1-usul. Yangi matematik jummlarni o'qituvchi o'zi ifodalaydi, o'quvchilar ularni o'zlashtiradi va mustahkamlaydi.

2-usul. Matematik jummlarni mustaqil ifodalash ("kashf etish") ga o'quvchilarni tayyorlash.

3-usul. Matematik ifodasi keyinchalik tayyor holda beriladigan yangi jummlarni ongli ravishda o'zlashtirishga o'quvchilarni tayyorlash.

O'rta maktab ish tajribasi shuni ko'rsatadiki o'qituvchilar birinchi usuldan keng foydalangan holda keyingi ikkitasini qo'llashga kam ehtibor beradilar, vaholanki ulardan foydalanish matematika darsida muammoli vaziyat yaratilishiga olib keladi va o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil ravishda faol va ongli o'zlashtiradilar. Bu esa ularda mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otadi va pirovad natijada o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Bundan tashqari matematika darslarida o'qituvchilar ko'p hollarda o'quvchilardan o'rganilgan ta'rif va teoremlarni esda saqlanishini tekshirish maqsadida ularni ifodalashni so'raydilar xolos. Shuning uchun ham o'quvchilar ularni quruq eslab qolishga intiladilar. Ular biladilarki, o'qituvchi faqat ta'rifni so'raydi, va shu sababli o'rganilgan matematik jummlarni yaxshi tushunmasa ham uni yodlashga harakat qiladilar va unga erishadilar ham, chunki ko'p teorema, ta'rif va aksiomalar sodda bo'lganligi uchun o'quvchilarga tushunarli bo'lib bir necha marta takrorlashdan so'ng ular yod oladilar. Lekin ta'rifni tushunib olmay turib, muddatidan oldin eslab qolishga urunish ta'lim jarayonida samarali natija bermaydi chunki bu holda o'quvchilar tomonidan uni ongli ravishda o'zlashtirish va mashqlar yechishda qo'llash malakalari tarkib toptirilmaydi. Demak o'qituvchi darsda masalalar yechish jarayonida o'quvchilarda masala sharti bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu matematik jummlarni ifodalash va ularni qo'llashni talab etsa, o'rganilgan matematik jummlar ular tomonidan ongli o'zlashtirilishiga asos yaratiladi. Agar o'quvchilar o'z javoblarini tegishli misollar va teskari misollar bilan mustahkamlasalar natija yanada ijobiy bo'ladi. Bu holda, masalan, o'quvchilar arifmetik ildiz tushunchasi ta'rifini o'rgangandan so'ng, nima uchun  $\sqrt{4}$  arifmetik ildiz,  $\sqrt{-4}$  esa arifmetik ildiz bo'lmasligini

tushuntirib bera oladilar. Shuning uchun ham o'rganilgan materialni mustahkamlash hamda bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish darslarida o'quvchilar tomonidan matematik jumlar ongli ravishda o'zlashtirilganligini yoki yo'qligini aniqlash maqsadida o'qituvchi ularni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini talab qiluvchi maxsus mashqlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish manbalaridan biri o'quvchilardek matematik tushunchalarani ta'riflash va teoremlarni isbotlashni mustaqil ravishda amalga oshirish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. Ma'lumki, tushunchaga ta'rif berish- bu o'sha tushuncha qamrab oladigan ob'ektlar to'plamini ajratish demakdir, yoki boshqacha aytganda o'quvchilar tushunchani o'rganish uchun yetarli bo'lgan barcha xususiy belgilarini ko'rsatishlari zarurdir. Buning uchun esa, masalan, geometrik tushunchalarni o'rganishda shunday mashqlar sistemasidan foydalanish kerakki, uning natijasida o'quvchilar talab etilayotgan figurani yasashlari va ta'riflanayotgan tushunchani barcha belgilarini ko'rsata olishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar teoremlarni mustaqil isbotlashga o'rganishlari uchun ular isbotlarni yodlashi emas, balki isbotlash jarayonini o'rganishlari kerak. Isbotlash jarayonidagi eng murakkab ish esa dalillar ketma- ketligini aniqlashdan iboratdir. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga isbotlash ketma- ketligini tuzishda ko'p hollarda teoremadagi tushunchalarni ularning ta'riflari yoki belgilari bilan almashtirish, mumkin bo'lgan hollarda teoremani qismlarga bo'lib, dastlab har bir qismni isbotlab, so'ngra teoremani to'laligicha isbotlash, teoremani isbotlashda ikki tomonlama: shartdan xulosaga va xulosadan shartga borish foydali ekanligi haqida tushuncha berish kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o'qituvchi emas, balki o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchi ham faol bo'lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko'rnishdagi metodlar o'yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz. Dars jarayonida bolalarni zerkitib qo'yimaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars

jarayonni tashkil qilamiz. Hattoki, ma'lum bir kitobni o'qiganda, sahifalarida turlicha mazmun kashf etishni ko'ramiz. Masalan: L.N.Skatkinning "Metodika" kitobini varaqlaganda, kitobning boshida metodikaning umumiy masalalariga daxldor bo'lgan, boblarida avtorning tilida ko'plab metod so'zi uchraydi. Lekin, xususiy masalalariga bag'ishlangan boblarida avtor "metod" so'zi o'rniga "usul" so'zi ishlatilgan. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchining soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quvmoddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etilsa, o'quvchi darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmuni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o'quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta'minlaydi. Matematika darslarida interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tishi mumkin. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilar juda o'yinqaro bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rangbarang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun

“Ko’paytirish jadvali”ni tushunishida o’quvchi qiynaladi. Agar bu mavzularni tushuntirishda interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o’quvchining xotirasiga ham qolishi osonroq bo’ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o’qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonlarini tashkil qilamiz. Oddiygina o’qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko’pchiligida o’qitish metodlari o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo’lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko’nikmalarga erishiladi, o’quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o’quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu uslublar maktab pedogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi: -Dars va mavzuning maqsadlari to’g’ri aniq tanlanganda; -Mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa; -Bir metod butun dars davomida qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa; -Tanlagan metod o’quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa, o’quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi. Biz dars jarayonida metodlarni qo’laymiz dedik, bu bilan o’quvchilarning dars materiallarini o’zlashtirish darajasini ancha yuqori bo’ladi. Biz dars jarayonida bolalarni yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o’tamiz. So’ngi yillarda pedagogika faoliyatda turli axborot vositalari (kopyuter, televideniya, radio, nusxa ko’chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalardan o’rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o’qituvchilar darslarni turli xil innavotsion metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Ochilov, N.Ochilova “Oliy maktab pedagogikasi” T.-2008 .
2. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” T.-2017.
3. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T.-2010.
4. “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’grisida”.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil apreldagi 187-son qarori. [lex. uz./pages/ getpage.aspx?/ act/id =3153714](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?act/id=3153714) – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi.
5. S. Alixonov Matematika o`qitish metodikasi. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011.